

ANVAR OBIDJONNING IJOD LABARATORIYASINING SHAKLLANISHIGA BIR NAZAR

Muydinov Muhammadzoir Zafarjon o‘g‘li

O‘ZMU jurnalistika fakulteti
adabiyotshunoslik yo‘nalishi 2 -kurs magistranti.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining iste’dodli vakili – shoir, nosir, dramaturg Anvar Obidjon bolalar adabiyotining yirik vakili sifatida adabiyotga kirib kelishi, ijod qilishni also tark etmasdan maqsadi yo‘lida jonini ayamagan insonning hayot yo‘llari haqida bayon etadi. “Ajinasi bor yo‘llar” avtobiografik qissasida adibning o‘z turmush kechinmalari haqida nutq so‘zlaydi.

Kalit so‘zlar: modernistik obraz, biografik asar, ohang, tahlil, syujet.

XX asr o‘zbek bolalar adabiyotining so‘nggi choragi hamda istiqlol davri nasri va nazmidagi shakliy, janriy rang-baranglik, mavzu dolzarbli, mazmundorlik ko‘لامi haqida so‘z borganda uni Anvar Obidjon ijodisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. U har qanday mavzuni yoritishda bola qalbiga mos ohang, davr ruhini aks ettira oladigan va ayni paytda g‘oyat qizikarli uslub, o‘ziga xos jilo bera olgan shoir, adib va dramaturgdir. Ayniqsa, zamon bilan hamnafaslik, jahon adabiyoti an’analarini o‘zbek bolalar adabiyotiga singdirish, jumladan, bolalar nasrida ham modernistik obraz va detallar yaratishda milliy ohang uyg‘unligida talqin etish ham Anvar Obidjon ijodiga xos tamoyildir.

Adibning "Dahshatli Meshpolvon", "Oltin yurakli Avtobola" asarlari yoki "Alamazon va uning piyodalari", "Yaltirok tugma" dilogik qissalari shu jihatdan o‘zbek bolalar adabiyotida yangi voqelik hisoblanadi. Bu asarlardagi obrazlar ham shu kunning qahramonlari. Va ular oddiy bola emas: dahshatli Meshpolvon, g‘aroyib,

olovqalb Alamazon yoki temirtan Avtoboladir. Ular tinib-tinchimasgina emas, ozodlik va haqiqat uchun, o‘z erki va xaq-xuquqi uchun kurashchuvchan, jasur hamda erkparvar bolalar. Bu asarlarning yozilishi adibning ichki olami va hayot qiyinchiliklarini boshidan o‘tkazgan inson sifatida tasvirlaydi. Yoshligida juda qiynalgan va hayot mashaqqatlarida toblangan bolakay katta hayotga erta qadam qo‘yadi. Bu vogelarini badiiy tasviriy ifodalar bilan yoritib, yangi bir asar yaratadi. Ijod mahsuli sanalgan biografik asarga “Ajinasি bor yo‘llar” deb nom beradi. Asar kirish qismidayoq “og‘zinga kelganini gapi rayverma, esingga kelganini yozaver” deb boshlaydi. Bu jumla orqali yozuvchi bosib o‘tgan yo‘lini har bir esda qolarli voqealarini yozib boradi va hammasini to‘plab biografik asar holiga keltiradi. Adib yoshligini shunday eslaydi:

“Kunchiqarga qaratib solingan, shiplari vassali, dahlizining to‘ridа o‘chog‘i bo‘lgan, ayvonsiz do‘ngalak uyda biz bolalar dadam va ayam bilan birga turardik. Unga biqindosh bo‘lgan shipi bo‘yrali, dahlizsiz, bittagina kichkina derazasi bor pastak uy Sarviniso buvimiz va uning biz bilan birga yashaydigan duvonaxonroq ukasi Usmon tog‘amizga tegishli edi. Polsiz, bo‘yra ustidan kigiz yozilgan bu uylardan yozda ham zaxning isi anqib turardi. Oldimizga ovqat qo‘yilishi bilanoq, shipdagи o‘rgimchaklar o‘zini dasturxonga tashlagudek bo‘lardi. Ba’zan, hali g‘o‘rligiga borib, odamdan hurkishni uncha o‘rganmagan sichqonchalar bir-birini quvalab o‘ta boshlardi. Qishda esa, pechkaga yolchisang, ko‘mirga yolchimaysan, o‘tin yoqsang, bir lovullab isitadiyu, yana tafti so‘nadi. Sandalning ahvoli ham shu. Qor yoki yomg‘ir yog‘sa, tomdan chakka o‘tgani-o‘tgan, suv tomchilayotgan joylarga terib qo‘yilgan turli idishlardan taralayotgan “chak-chuk”, “tiring-tiring”larga ko‘rinmas ajinalar o‘yin tushayotgandek. Maktabga bora boshlagan chog‘larimda dadam tushlikka teskarilatib sinchli, guvalakli (ba’zi qariyalar guvalak tipratikonga o‘xshagani uchunmi “kirpicha” deyishardi) uy qurdi. Buvim bilan ayam kattaroq qilib qurishni, tomsga shifer qoqtirishni qanchalar zorlanib so‘rashmasin, dadam: “Zamonni ko‘rib turibsizlar, kattaroq to‘y qilsang ham, shuncha pulni qayyoqdan topding, deb so‘roqqa tutadiganlar ming so‘m oylik bilan buni qanday qurding, demaydimi? Nima, meni qamatirib

yubormoqchimisizlar?” – deya bezilloqlanib, ixchamgina uy soldirdi. Tomi tuproqli bo‘lsa-da, harqalay tagi taxta polli, shipi fanerli, pechi pishiq g‘ishtdan yasalgan, dahlizi ancha keng, ayvonli edi. Do‘ngalak uy endi buvimidga berilgach, avvaliga opalarim, keyinchalik, maktab yoshiga yetganimiz sayin, men va ukalarim ham birin-ketin shu yoqqa ko‘chib o‘taverdik. Pastak uyda Usmon tog‘amiz bir o‘zi qoldi. Iloji boricha kunduzi dars tayyorlashga urinardim. Qorong‘iga qolsang, kerosin isi anqib turadigan lampa-chiroq ko‘zingni toliqtirgandan toliqtirib tashlaydi. Endigina paydo bo‘lgan elektr chiroqlari oyiga uch-to‘rt yiltillagan bo‘ladi, shundayam shamdan xira. Bu yetmagandek, umumiy qilib solingan ko‘rpada qatorlashib yotgan opa-ukalaring: “Chiroqni o‘chir! Uxla!” – deb tixirlik qila boshlaydi”³

Ikkinci jahon urushi tugagandan so‘ng ko‘plab insonlarning oilaviy sharoiti yo‘qsil holatga tushib qoladi. Buning shabadalari Anvar Obidjonlarning ham oilasini chetlab o‘tolmadi. Turmush qiyinchiliklari, oila boshlig‘ining ro‘zg‘or tashvishlariga bardoshi yetmayotganligi asarda yaqqol ko‘rsatib berilmoqda. Asarda shu vaziyatda ham yoshlik shijoati bilan o‘qishga vaqt topganligi, adabiyotga qiziqishlari ortib borayotgani, she’r yozishni har kuni mashq qilishga vaqt topganligini anglab olish qiyin emasdi. Juda ko‘p kitoblarni o‘qib, tafakkur olamini kengaytirib borayotgan yosh Abdulla tengdoshlarining orasida yaqqol ko‘rina boshladi. O‘zi sinfda eng oldi bo‘lishini va tengdoshlari uning ortidan ergashishini maqsad qilib qo‘ydi. Keyinchalik bunga ham qanoat qilmasdan ham bilimda, ham urushqoqlik borasida o‘zidan kattalar bilan ham bellashadigan bo‘ldi. Bu voqealar uning ichki qobilyat va energiyasi juda boy ekanligidan dalolat beradi. Maktabda o‘qib yurgan kezlarida (5-6-sinflik paytlariga to‘g‘ri keladi) jahonga mashhur asarlar va uning mazmuniga tushunish qiyin bo‘lgan badiiy adabiyotlarni o‘qib ular haqida ongida mushohada qilishni boshlaydi. Bulardan “Go‘ro‘g‘li”, “Alpomish”, “Orzigul”, “Ravshan va Zulkumor”, “Kuntug‘mish” singari xalq dostonlari edi. Orada “O‘tkan kunlar”, “Sarob”, “Qo‘shchinor chiroqlari” kabi asarlar, tarjimada “Ko‘r muzikachi”, “Mumu”, Mopassan va Lermontov hikoyalari, Shota Rustaveli dostoni, Shekspir pesalari o‘qib

³ “Sharq yulduzi” jurnali, 2014 yil 1-2-sonlar

tamomlagan edi. Bulardan olgan taassurotlari va so‘z sehrini amalda qo‘llashga ishtiyoq tug‘iladi. Natijada so‘z xazinasidan she’rlar yozishni boshlaydi. Yozgan she’rlarining siyohi qurimasdan peshma-pesh “G‘uncha” jurnaliga jo‘nataveradi. Bu jurnal xodimi Miraziz A’zam bilan yozgan she’rlari orqali juda yaqin bo‘lib qoladi. Keyinchalik katta badiiy asarlar yozganida ham Miraziz A’zam bilan maslahatlashar va adibga adabiy tavsiyalar berib borgan.

Yettinchi sinfga o‘tganida uning hayotida yangi sahifa ochildi, ya’ni bo‘lajak yozuvchi mahalladoshi Alijon aka degan sayyor kinochiga shogirdlikka tushadi. U bilan dalada, shiyponda, mahallalarda tasmaga yozilgan kinolarni qo‘yib kinochilik sohasida ham ancha tajribaga erishadi. O‘sha vaqtarda hammaga taniqli bo‘lgan kinolardan “Biz – Kronshtatdanmiz”, “Amirlikning yemirilishi”, “Tinch oqar don”, “Chapaev”, “Turnalar uchmoqda”, “Farg‘onadan besh kishi”, “Daydi”, Charli Chaplin (ovozlilari), “Maksimka”, “Janob 420”, “Ruslan va Lyudmila”, “Tohir va Zuhra”, “Lenin Smolniyda”, “Nasriddin Buxoroda” singari filmlarning goh o‘zbekchasi, goh o‘rischasini berishardi. Bu filmlarni qo‘yish va qayta-qayta ko‘rish natijasida Anvar Obidjon ruschada ham gapirishni ancha o‘rganib oladi. Natijada mакtabda past baho oladigan Anvarjon rus tilidan “to‘rt” va “besh” baho oladigan bo‘ldi.

Ayni kuchga to‘lgan o‘smirlik paytida og‘ir kasalga chalingan Anvarjon to‘sakka mixlanib qoladi. Yuray desa darmoni yo‘q, taom yemoq uchun ishtahasi yo‘q holatda bir necha kun uydan tashqariga chiqolmasdan dardlanib yotdi. Ota-onaning uzluksiz qarovi natijasida avvalgi quvvati qaytib, chor bog‘larni aylandi. Hovlidagi yumushlarga avvalgidek qarashadigan bo‘ldi. Ko‘chaga chiqib o‘rtoqlari bilan sayr qilib yurgan vaqtida qishloq ijroqo‘mining raisi Eminjon karvonga dush kelib qoladi. Uning buzilib qolgan motorli velosipedini tuzatib bergandan so‘ng, ishsiz yurgan Anvarga mahallasidagi kutubxona mudirligida ishlashni taklif qiladi. Ishsiz yurgan Anvarjon bu taklifni tezda qabul qilib, ertasi kunidan ish faoliyatni boshlaydi. Bu joyda ishlash natijasida ko‘plab badiiy asarlarni ham o‘qib tamomlab chiqadi. Bu haqida yozuvchi “Ajinasi bor yo‘llar” qissasida shunday deydi: “Kutubxonachilik davrim, bosib she’rlar yozishdan tashqari, badiiy kitoblarni to‘yib-to‘yib o‘qiganligim

bilan yodimda ko‘proq iz qoldirgan. O‘shanda Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor, Mirtemir, Shuhrat, Shayxzoda, Said Ahmad, Sharof Rashidov, G‘afur G‘ulom, Sobit Muqonov, Oybek, Berdi Kerboboev, Hamid G‘ulom, Ibrohim Rahim singari “o‘zimiznikilar”dan tashqari, Pushkin, Ekzyuperi, Balzak, Rodari, Chukovskiy, Nekrasov kabi “yotlar”ning asarlarini suv qilib ichvorgan edim. O‘qigan kitoblarim yuzasidan ko‘pincha Abdusalom bilan fikrlashardim. Bahsimiz ba’zida janjalga aylanib ketishiga sal qolsa-da, baribir bir-birimizdan ajragimiz kelmas, o‘qigan kitobimiz haqida yayrab gurung qurish mumkin bo‘lgan boshqa zotni bu atrofdan topish mushkul edi. Abdulla Qodiriyning hajviy hikoyalari o‘sha damlarda ikkovimiz uchun alohida sevimli bo‘lib qolgandi. Kalvak maxzumni, Toshpo‘lat tajangni qayta-qayta esga olib, bu chapani qahramonlarning xurmacha qiliqlari, jaydaricha gaplaridan har safar yumalab-yumalab kulardik. Bu kitobni goho ukalarimga o‘qib bersam, ularga ham rosa nash’a qilardi”.⁴

Ilmning ortidan tinmay chopgan Anvarjon o‘qish uchun azim Toshkentga keladi. Imtihonlarni namunali bajarib, oliy o‘quv yurtiga talabalar safiga qabul qilinadi. O‘qib yurgan kezlari she’rlar yozar, “Alamazon va uning piyodalari” asarining qoralamasini tayyorlashga kirishib ketgan edi. Bu asarda Alamazonning jahongashtaligi, barcha narsaga qiziquvchanligi haqida badiiy tasvirlar bilan yoritiladi. O‘qishni tamomlagandan so‘ng “Paxta uchun” gazetasiga adabiy hodim lavozimiga ishga kiradi. Ish faoliyat yuritish bilan birgalikda redaktsiya qoshida adabiy to‘garak ham tashkillaydi. To‘garak ishtirokchilarining orasida keyinchalik Yozuvchilar uyushmasiga qabul qilingan Enaxon Siddiqova, Maqsuda Ergashevalar ham bor edi. Oiladagi moddiy qiyinchiliklarga qaramasdan maqsad sari intilgan Anvar Obidjon yetuk bir yozuvchi bo‘lib taniladi. Adib yozgan nasriy hamda she’riy asarlari xalq qalbidan, kutubxonalarning nodir asarlar qatoridan joy oladi. Bolalar adabiyotiga o‘zining sermahsul ijodi bilan kirib kelgan Anvar Obidjon O‘zbekiston xalq shoiri unvoniga sazovor bo‘ladi. Hozirgi kunda bolalar adabiyotini bu yozuvchisiz tasavvur

4 A.Obidjon. Ajinasi bor yo’llar. – T.: “Sharq yulduzi” jurnali, 2014 yil

etish juda qiyin. yozuvchining fantastik va qiziq yumorlarga boy asarlari qo‘ldan-qo‘lga otib, sevib mutola qilinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. *A.Obidjon. Ajinasi bor yo ‘llar. – T.: “Sharq yulduzi” jurnali, 2014 yil*
2. *A.Obidjon. Alamazon va Gulmat. T.: Cho ‘lpon”, 1998-yil*
3. *A.Obidjon. Juda qiziq voqeа. T.: "Cho ‘lpon", 1997-yil*
4. *A.Obidjon. Ketmagil. T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985- yil*
5. *Said Ahmad. Farg‘onada bittagina "Xalq so ‘zi". 2000 yili 19 aprel*
6. *Rahmon Qo ‘chqor. Ajabtovur idrok usuli. "Fidokor", 2000-yil 20-avgust.*